

**Sardorbek USMONOV,**  
*Andijon Davlat universiteti "Falsafa" kafedrasida erkin tadqiqotchisi*  
*E-mail:usmonovs@mail.ru*

*Falsafa fanlari doktori, dotsent I.Siddiqov taqrizi asosida*

## ISSUES OF GLOBALIZATION AND YOUTH POLICY

Annotation

The article talks about globalization and youth policy, one of the current problems of the world of philosophy. In order to clarify the topic of the article, scientific research works of foreign and local scientists were used.

**Key words:** Youth policy, globalization and integration, mode of ownership, interest, mass culture

## ВОПРОСЫ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ

Аннотация

В статье говорится о глобализации и молодежной политике, одной из актуальных проблем мировой философии. Для пояснения темы статьи использованы научные исследования зарубежных и отечественных ученых.

**Ключевые слова:** Молодежная политика, глобализация и интеграция, форма собственности, интерес, массовая культура.

## GLOBALLASHUV VA YOSHLAR SIYOSATI MASALALARI

Аннотация

Maqolada hozirgi falsafa olamining dolzarb muammolaridan biri globallashuv va yoshlar siyosati masalalari haqida soʻz boradi. Maqola mavzusini yoritib berish maqsadida xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanildi.

**Kalit soʻzlar:** Yoshlar siyosati, globallashuv va integrallashuv, egalik modusi, manfaat, ommaviy madaniyat

**Kirish.** Jamiyat taraqqiyotida yoshlar siyosati alohida ijtimoiy va intellektual paradigma sifatida ijtimoiy - falsafiy muammolar qatoriga kiradi. Bu oʻz navbatida hozirgi zamonda Oʻzbekiston - ijtimoiy davlat tamoyilini ilgari surishda dolzarb siyosiy masalalarning biri sifatida, jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy siyosat modelini rivojlantirish, umumiy qonuniyatlarni ishlab chiqish, har tamonlama tadqiq etish, yaʼni maʼlum bir ijtimoiy-metodologik tamoyillarga asoslanishni taqozo etadi.

Bir soʻz bilan aytganda, hozirgi davrda mamlakatimizda ijtimoiy hamda maʼnaviy munosabatlarning global va integratsiyalashuvi kuchayib borayotgan bir davrda yoshlar ijtimoiy borligʻining alohida oʻziga hos jihatlarni transformatsiyalash negizlarini falsafiy asoslab berish va shu bilan yoshlarni oila mahalla va taʼlim bilan oʻzaro aloqadorligini yangi bosqichga qoʻyish, eskicha tafakkur stereotiplardan ozod qilish talab etiladi. Sababi, mamlakatimizda yoshlar – alohida qadriyat sifatida baholanar ekan, milliy afzal qadriyatlarining falsafiy mohiyatlarini ochib berish obʼektiv zaruriyat sifatida qolaveradi. Bu borada ijtimoiy davlat maqomiga erishish qanday falsafiy-metodologik tamoyillarni ilgari surish evaziga asoslanishi kerakligi muhim ahamiyatga egadir.

Mana shu vazifaning ijtimoiy - falsafiy asosini yaratish masalasi bugungi zamonaviy Oʻzbekiston jamiyatining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Insonning ijtimoiy maqomi ikkita ichki diametral qarama-qarshi asosda tashkillangan boʻlib, buni E.Fromm quyidagi formulada ifodalaydi: «ega boʻlmoq» yoki «boʻlmoq».

Insonning «ega boʻlmoq» maqomidagi mavjudlik asosini E.Fromm shunday taʼkidlaydi: «Egalik qilmoqning mohiyati shaxsiy daraja tabiatidan kelib chiqadi. Mazkur usuldagi mavjudlikda eng asosiysi, shaxsiylikka ega boʻlmoq va mening mavjudlik huquqim, maʼnosida nemis faylasufi R.Dekartning «Men mavjudman, qolgan barcha narsalarga shubha qilaman» [1] maʼnosiga ham ishoradir. Egalik qilmoq modusi, shuningdek moddiy va maʼnaviy hususiyatni oʻzida ifoda etadi. Egalik qilmoq, taʼsir etmoq, bular industrial jamiyatda individning ajralmas huquqlari hisoblanadi»[2].

Insonning «boʻlmoq» koʻrsatmasidagi mavjudlik usulini esa, «Boʻlmoq modusi oʻzining negizida ruxiy mustaqil, erkin va tanqidiy aql yuritishga ega boʻlish asosiy xarakterli belgisi –insonning biologizatorlik hamda sotsiologizatorlik potentsiallarining mahsuli tarzida amalga oshiriladi. Faol boʻlmoq - har bir insonga hech boʻlmaganda har xil darajada tegishli boʻlgan qobiliyati, talanti, insonga berilgan ratsional va irratsional boylikni baxshida qilmoq tushuniladi»[2], deb taʼkidlaydi, yaʼni insonning aqliy va maʼnaviy tabiati bilan bogʻliq ekanligini koʻrsatadi.

Zamonaviy yoshlarning mavjudligi usuli va ustanovkalari, «ega boʻlmoq» va jamiyatda qarama-qarshilikni yuzaga keltiruvchi toʻsiqlar, taraqqiyotga putur yetkazishi muqarrardir. Ammo bunga qarshi turuvchi kuch, yaʼni inson mavjudligining tartiblangan mexanizmi (xususiy mulk, maʼnaviy ehtiyojlar, konstitutsion erkinlik va eʼtiqodini tartibga soluvchi va boshqaruvchi ijtimoiy makon) bu taʼlim – tarbiya mexanizmidir. Shu sababdan yoshlar qadriyatlarini transformatsiyalashning murakkab davrida, ush bu «ega boʻlmoq» yoki «boʻlmoq»ni qarama qarshi omil tarzida emas, balki ularning konsensus birligini: «ega boʻlmoq» va «boʻlmoq»ni taʼminlash falsafiy, ahloqiy hamda maʼnaviy negiz sifatida baholash zarurdir. Ahloqiy va intellektual qobiliyatlar birligini qarama-qarshiliksiz amalga oshirish, hozirgi zamonaviy Oʻzbekiston sharoitida ijobiy tomonga oʻzgarimoqda. Shuningdek, «boʻlmoq» mavjudlik usulini manfaat tushunchasi bilan ham bogʻlash oʻrinlidir, sababi bugungi yoshlarimiz moddiy va maʼnaviy manfaat tushunchasini tor doirada tushunishi evaziga unga subʼektiv baxo beradilar. Falsafa fanlari doktori, F.R. Abdurahmonovning fikricha "...Manfaat tushunchasi serqirra, murakkab tushunchadir. Uning mohiyati siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlar bilan bogʻliq boʻlibgina qolmay, konkret tarixiy shartlar bilan ham belgilanadi. Har xil davralarida, real shartlarga bogʻliq xolda, manfaatning u yoki bu tomoni koʻproq ajralib chiqadi. Manfaatning strukturasi har doim oʻzgarishda boʻladi. Har doim oʻzgarib turuvchi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida manfaatning bir xil tomonlari tushib qoladi va ayrim tomonlari yuzaga chiqadi»[3]. Moddiy jihatdan manfaat-foydadan unum bilan bogʻliq (shu

ma'noda "o'z manfaatlariga ega bo'lishi" degan ibora ishlatiladi). Biron-bir narsaga, xodisaga qiziqishi bo'lgan odam manfaatdor shaxs. Agar bu umumiylik xususiyatga ega bo'lsa, u manfaatli shaxsga aylanadi. Manfaatga daxldor narsa-bu insonlarda qiziqish uyg'otuvchi narsa, voqealik. Ular insonlarning amaliy, kundalik ehtiyojlari uchun ahamiyatga ega. Shunga ko'ra moddiy va ma'naviy, umumiy va xususiy manfaatlar to'g'risida so'z yuritish kerak bo'ladi. Agarda jamiyatga beg'araz xizmat qilish shaxsiy foyda bilan uyg'unlashsa, sog'lom manfaat tug'iladi"[4].

Jumladan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev belgilab bergan O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida yoshlarning ham moddiy, ham ma'naviy yuksalishiga katta e'tibor berilgan bo'lib, u jamiyatimizning manfaatini ya'ni taraqqiyotini belgilaydi va harakatga keltiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Milliy mafkuramizda belgilangan g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishimizda, jumladan komil insonni shakllantirishimizda, ularning ijtimoiylashuv jarayoni muhim ahamiyatga ega bo'lib ya'ni, ijtimoiylashuv bunda kishining milliy madaniyat elementlarini o'ziga singdirish jarayoni xisobalanib, unda maxallaning reguliyativlik vazifasi bugungi yoshlar siyosatining milliy fundamentlaridan biri ekanligi alohida e'tiborga ega. Bu boradagi bugungi mas'uliyat aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida "ommaviy madaniyat"ning salbiy illatlarini oldini olishdan iboratdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ommaviy madaniyat – bu omma madaniyati, xalqning istemoliga qaratilgan madaniyatdir. Ushbu madaniyatning kommersion industriyasi, xaqiqiy xalq madaniyatiga zid hisoblanib, u an'analarni bilmaydi, millati yuq. Ommaviy madaniyat keng auditoriyaga muljallangan, uzining kurinishi buyicha oson, yengil xazm etiladi. Shu sababdan xam ommaga ta'sir kuchi katta. Ommaviy madaniyat xodisasi mavjud va natijali ta'sir vositasi sifatida u televidenie va internet orqali tarqatiladi va xalq i'stimoliga aylanadi. Uning zamonaviy ko'rinishlaridan biri kiberbulling hodisasi hisoblanib, bugun unga qarshi mediasavodxonlik darajasi bilan bog'liq muammolar global omma oldidagi muammolarning asosiylaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

**Tahlil va natijalar.** Ommaviy madaniyat o'zining tarkibiy tuzilishiga ko'ra serqirra bo'lib, uning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilar olib qaraladi.

- gomegen auditoriyaga yunalganlik (ommadagi farqlarni xisobga olmaslik);
- emotional (aqlga mos kelmaslik), ongsizlikga suyanish;
- tez tushunish, tez bilishning zarurati;
- ommani ishontira olish;
- tez xazm bo'lish;
- mantiqiy fikrlashni talab etmaslik va h.

Hozirgi zamonda ommaviy madaniyat tug'risida ikkita yunalish mavjud. Birinchi yunalish vakllari mazkur xodisaga sa'lbii baxo bersa, ikkinchi gurux vakllari uni maqullaydi. Masalan, birinchi gurux vakllaridan Adorno, Markuze singari faylasuf olimlar fikricha ommaviy madaniyat iste'molchilarga hayotni passiv ravishda idrok etishga o'rgatadi. Ya'ni, ommaviy madaniyat asarlari shaxsga atrof muxitida bo'layotgan xodisalar xaqida tayyor javobni beriladi. U shaxsning ongsiz soxasiga ta'sir etib, uning lazzatlanishga ishtyoqini oshiradi, aqliy mushoxada etishiga yul bermaydi va taqlid etishga intilmaydi.

Ammo ikkinchi gurux vakllari esa ommaviy madaniyatning ijtimoiy hayotdagi optimistik roliga ishonadi. Masalan ular quyidagilarni keltirib o'tadi.

- Ommaviy madaniyat o'zining bo'sh vaqtini natijali foydalana olmaydigan kishilarni o'ziga tortadi ;
- Kayfiyat ko'tarish industriyasi;

- Tanlovlar va savollarga tez javob beradi, ularning madaniy rivojlanish darajasiga mos.

- Ommaviy madaniyat ijtimoiy garmoniyani o'rnatadi, jamiyatni yaxlitlikka aylantiradi.

Xalqqa tushinarli va qulay, oddiy ommani qondiradigan normal xodisa bo'lib, uni cheklash va inkor etish mumkin emas va x.k fikrlarni bildiradi.

Yoshlar o'rtasida yanada yangilanib, yangi ko'rinish kasb etayotgan "ommaviy madaniyat"ning salbiy illatlarini oldini olishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

Birinchidan, yoshlarda sog'lom ma'naviy ehtiyojini shakllantirish.

Ma'naviy ehtiyoj o'z-o'zidan quruq joyda paydo bo'lmaydi. Qolaversa, yoshlarning bunday ehtiyojini ma'muriy yullar bilan shakllantirish xam mumkin emas. Majburan kitob o'qitish, sa'nat asarini tomosha qildirish mumkin. Ammo, bu yo'ldagi ma'muriy usul yoshlarning ma'naviy ehtiyojini shakllantirishdan ko'ra ko'proq aks ta'sir etishi mumkin. Sog'lom ma'naviy ehtiyoj kishida erkin tafakkur qilish, fikriy mustaqillikka erishishni ta'minlaydi.

Olib borayotgan targ'ibot-tashviqot, ma'naviy-mafkuraviy foliyatlarimiz muayyan maqsadga yo'naltirilmas ekan, unda hech qanday naf bulmaydi. Kishining qiziqishi, yosh xususiyatlari, psixologiyasi va shunga o'xshash jixatlari e'tiborga olinib utkazilgan xar qanday tadbir usha shaxsning sog'lom ma'naviy ehtiyojini shakllantirishga xizmat etadi.

Inson va jamiyat taraqqiyotining asosi, uni yo'naltiruvchi kuch bu – ehtiyoj[1] ekanligini bilamiz. Yoshlarda sog'lom ma'naviy ehtiyojini shakllantirish mexanizmlari xaqida gapirganda ehtiyoj uzin nima degan savolga javob beraylik. Adabiyotlarda «ehtyoj – inson talablari asosida paydo bo'ladigan tabiiy xususiyat, jonli mavjudot xayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlariga, bog'liq ekanligini ifoda etuvchi xolat», - deb ta'rif beriladi. Odatda ehtiyojlar moddiy va ma'naviy turlarga bo'linadi. Bugungi kun ayrim yoshlarimiz faqat moddiy ehtiyojga berilib ketganligi sir emas. Bilim olish, tajribi orttirish, o'qish, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish, inson ma'naviy ehtiyojlarining muhim komponentlaridan xisoblanadi. Yoshlarning ma'naviy ehtiyojini shakllantirishda va uni qondirishga bulgan xar qanday xarakter pirovard natijada insonning ma'naviy qiyofasini shakllantirishga olib keladi. Shuningdek, yurtimizda xar bir mintaqaning, viloyatning, qishloqning o'z xududiy xususiyatlari mavjud. Bizningcha, yoshlarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishda xamma xududlarga bir xil ravishda munosabatda bo'lish mumkin emas. Yoshlarning ma'naviy ehtiyojini shakllantirishda milliy makon xususiyatlarga e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq.

**Xulosa.** Bir so'z bilan aytganda, yoshlarning barqaror taraqqiyot konsepsiyasini yaratish, hamma soha vakllarining kompleks yondashuvi zaruriyat ekanligini taqozo etmoqda. Sababi, yoshlarning har tomonlama barqaror taraqqiyoti, jamiyatimizning barqaror taraqqiyotini belgilaydi. Faqat shundagina O'zbekistonning sivilizatsion taraqqiyoti ilgarilab boradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Йўлдошев С. ва бошқалар Янги ва энг янги давр Ғарбий Европа фалсафаси.Т.:”Шарқ” нашриёти, 2002 й. -Б.5.
2. Фромм Э. Иметь или быть? - М.: Прогресс, 1990. – С.94.
3. Абдурахмонов Ф.Р. Мустақиллик ва миллий манфаатлар. Тошкент.: “Фан”, 1994.-7.
4. Холбеков А.Ж. Матибоев Т.Б. Ижтимоий адолат ва демакрия: Барқарор тараққиёт йўлида.: Янги аср авлоди, 2004.-б 102.